



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

KURSANTLARNING HARBIY SOHAGA OID NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Asqarova Gulruhbonu Xasanboy qizi

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya
texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Annotation:

Maqlada kursantlarning harbiy sohaga oid ingliz tilidagi nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda Content-Based Instruction (CBI) yondashuviga asoslangan kombinatsiyalashgan metodning ahamiyati tahlil qilinadi. Unda interaktiv texnologiyalar, situatsion mashg'ulotlar, PBL, brifing, simulyatsiyalar va elektron baholash komponentlarining birgalikdagi ta'siri bayon etiladi. Harbiy oliv ta'lim muassasalarida olib borilgan tahlillar asosida CBI yondashuvining amaliy holati, muammolari va takliflar asosida yechimlar ishlab chiqiladi.

Ключевые слова: CBI yondashuvi, kombinatsiyalashgan metod, harbiy ingliz tili, situatsion mashg'ulot, elektron baholash, nutq ko'nikmasi, PBL, simulyatsiya.

Аннотация:

В статье рассматривается значение комбинированного метода на основе Content-Based Instruction (CBI) для развития речевых навыков курсантов в военной сфере. Раскрываются компоненты, такие как интерактивные технологии, ситуационные задания, обучение на основе проблем (PBL), брифинги, симуляции и электронное оценивание. На основе анализа высших военных учебных заведений Узбекистана определяются практические проблемы внедрения CBI и предлагаются рекомендации по их решению.

Ключевые слова: подход СВИ, комбинированный метод, военный английский язык, ситуационные задания, электронная оценка, речевые навыки, PBL, симуляция.



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

Annotation:

The article discusses the importance of the combined method based on the Content-Based Instruction (CBI) approach for enhancing cadets' military-related English language skills. It analyzes components such as interactive technologies, situational tasks, Problem-Based Learning (PBL), briefings, simulations, and electronic assessment. Based on the analysis of military higher educational institutions in Uzbekistan, practical problems in implementing the CBI model are identified, and methodological recommendations are provided.

Keywords: CBI approach, combined method, military English, situational training, electronic assessment, speech skills, PBL, simulation.

Harbiy oliy ta'lif muassasalarida ingliz tilini o'qitish bugungi kunda faqat lingvistik bilimlar berish bilan cheklanmay, balki kursantlarda kasbiy nutq ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilmoqda. Bu borada mazmunga asoslangan yondashuv — CBI (Content-Based Instruction) — ta'lif jarayonida asosiy metodik asos sifatida tanlanmoqda. CBI yondashuvi doirasida kursantlar harbiy mazmunli topshiriqlarni bajarar ekanlar, bir vaqtning o'zida ingliz tilini amaliy kontekstda o'zlashtiradilar. Ammo mazkur yondashuvning samaradorligini maksimal darajaga yetkazish uchun uni boshqa metodlar bilan uyg'unlashtirish zarurati tug'iladi.

Amaliyotda bu yondashuv ko'pincha kombinatsiyalashgan metod asosida tashkil etiladi. Ya'ni CBI asos sifatida tanlanadi va unga interaktiv texnologiyalar, situatsion mashg'ulotlar, muammo asosida o'qitish (PBL), brifing, simulyatsiyalar, blokli modul tizimi, elektron baholash kabi vositalar qo'shiladi. Shunday shakllangan metodik model o'z navbatida, harbiy sohaga oid nutq ko'nikmalarini shakllantirishda ham kasbiy, ham kommunikativ, ham strategik kompetensiyalarni uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur kompleks yondashuv, turli harbiy oliy ta'lif muassasalarida sinovdan o'tkazilgan bo'lib, uning afzallik va zaif tomonlari va kursantlarning nutq ko'nikmasiga ta'sir darajasi aniqlangan [1, 195–216-bet] (1-jadval va 1-diagrammaga qarang).



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

1-jadval CBI asosida kombinatsiyalashgan metodning komponentlari va ularning ta'siri

Komponent	Qo'llanish shakli	Nutq ko'nikmasiga ta'siri
Interaktiv texnologiyalar	QR-kodli testlar, multimedia darslar, mobil ilovalarga asoslangan topshiriqlar	Tinglab tushunish, tezlikda anglash, og'zaki javob tezligining ortishi
Situatsion mshg'ulotlar	Real xizmat holatlarida og'zaki va yozma muloqotga asoslangan rolli o'yinlar	Real muloqotda erkinlik, kasbiy kontekstda aniq ifoda, kasbiy tajriba ortishi
Muammo asosida o'qitish (PBL)	Kursantlar muammoli vaziyatni tahlil qilib, ingliz tilida yechim ishlab chiqadilar	Tahliliy fikrlash, terminlardan to'g'ri foydalanish, vaziyat asosida nutqni modellashtirish
Brifing va simulyatsiyalar	Harbiy senariy asosida briefing yozish, komandir buyruqlarini ifodalash, tahlil	Strategik nutqni aniq og'zaki ifoda, intonatsiya va urg'u orqali ifodalash
Blokli-modul tizimi	Har bir mavzu bo'yicha ko'nikmalarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish	Yozma va og'zaki nutqda izchillik, tizimlilik, murakkab tuzilmalarni o'zlashtirish
Elektron baholash	Onlayn testlar, avtomatik ball berish, interaktiv monitoring	O'z-o'zini tahlil qilish, ob'yekтивlikga asoslangan natijalar, natijalarning tezkorligi




Diagramma 1. CBI komponentlarining kursantlarning nutq ko'nikmasiga ta'siri



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

CBI asosida tashkil etilgan kombinatsiyalashgan metod orqali mashg‘ulotlar kontekstli, interaktiv va kasbiy jihatdan yo‘naltirilgan shaklda o‘tiladi. Masalan, “Radiogramma yozish” yoki “Boshqaruv punktidan og‘zaki topshiriq olish” kabi mashqlar harbiy faoliyatga yaqinlashtirilgan holda olib boriladi. Kursantlar harbiy terminlarni real topshiriqlarni bajarish mobaynida egallaydilar, ularni strukturalash va og‘zaki ifodalashda til vositalaridan ongli ravishda foydalanadilar. Til o‘rganish endilikda passiv emas, balki faol harakat, tanlov, tahlil va muloqot jarayoniga aylanadi [2, 338-bet].

Bu model asosida ishlayotgan harbiy ta’lim muassasalarida kuzatilgan yutuqlar quyidagilar bilan tavsiflanadi: interaktiv vositalardan foydalanish kuchaygan, mashg‘ulotlar kombinatsiyalangan topshiriqlar asosida olib borilgan, simulyatsiyalar, real sharoitdagi muloqot mashqlari joriy qilingan. Biroq ba’zi holatlarda terminologik lug‘at bilan ishlash kamligi, muloqot muhiti sustligi yoki topshiriqlarning xilma-xilligi yetarli darajada emasligi kabi kamchiliklar ham aniqlangan. Bu esa metodik modelda ichki muvozanatni saqlash, CBI asosini to‘liq ochib beruvchi modullarning tizimli ishlab chiqilishini talab qiladi. Quyida CBI asosida kombinatsiyalashgan metodning komponentlarini birma-bir ko‘rib chiqamiz:

Zamonaviy harbiy ta’lim sharoitida interaktiv texnologiyalar ingliz tilidagi kasbiy muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, harbiy kursantlar uchun real xizmat vaziyatiga yaqinlashtirilgan, vizual va audio ko‘rinishdagi topshiriqlar orqali ingliz tilini o‘rganish samaradorligi yuqori bo‘ladi. Interaktiv platformalar, mobil ilovalar, QR-kodli testlar, virtual o‘yinli simulyatorlar yordamida til kompetensiyalari faollashtiriladi. Bu vositalar harbiy kasbiy jarayonlarni imitatsiya qilish imkonini bergani sababli, nutqiy faoliyatni real amaliyotga moslashtirishga xizmat qiladi [3, 285-bet] (2-jadval va 2-diagrammaga qarang).



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

2-jadval Interaktiv texnologiyalar orqali shakllanuvchi nutq ko‘nikmalari

Texnologik vosita	Kasbiy topshiriq namunasi	Rivojlanayotgan ko‘nikma
QR-kodli audio topshiriq	Briefing eshititing va gapirib bering	Tinglab tushunish, og‘zaki bayon
Mobil ilova testlari	Sifatli qurol tanlash sababini tushuntiring	Argumentatsiya, terminologik ifoda
Video simulyatsiya	Signalni qabul qilib, qayta yetkazing	Kasbiy eshituv va og‘zaki kommunikatsiya
Elektron savolnomalar	Kechiktirilgan yuk tashish holatida xabar yuborish	Yozma nutq, strukturaviy ifoda




Diagramma 2. Interaktiv texnologiyalarning nutqiylar kompetensiyalarga ta’sir darajasi (ball bilan)

Harbiy sohadagi nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda situatsion mashg‘ulotlar eng samarali metodlardan biri hisoblanadi. CBI yondashuvi doirasida bu metod kursantlarga kasbiy faoliyatda uchraydigan real kommunikativ vaziyatlarni modellashtirishga imkon beradi. Masalan, patrulllik davomida to‘xtatilgan fuqaro bilan suhbat, xizmatdagi favqulodda holatda buyruq berish, yoki qurol-aslaha haqida



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

hisob berish kabi holatlar til o‘rganish materialiga aylantiriladi. Bunday situatsion mashg‘ulotlar og‘zaki va yozma ifoda, interaktiv muloqot, situatsiyani baholash va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi [4, 303–318-bet] (3-jadvalga qarang).

3-jadval Situatsion mashg‘ulotlar asosida shakllanadigan nutq ko‘nikmalari

Vaziyat	Topshiriq mazmuni	Shakllanuvchi nutq ko‘nikmasi
Xizmat vaqtida fuqaroni tekshirish	Fuqaroning hujjatlarini so‘rash va tushuntirish	Savol-javob, tartib asosida muloqot
Harbiy yig‘ilishda hisobot berish	Missiyaning natijalarini ingliz tilida bayon qilish	Rasmiy uslubda nutq, bayon qilish
Radiomuloqotda signal uzatish	Qarama-qarshi bo‘linmaga holat haqida signal berish	Aniq ifoda, qisqa jumlalar, shoshilinch aloqa
Postdagi ziddiyatli holat	Xavfli holatni tinchlantirish va tavsif berish	Tinch yo‘l bilan ifoda, izoh berish

Muammo asosida o‘qitish (Problem-Based Learning – PBL) metodikasi, ayniqsa harbiy sohaga oid ingliz tilidagi nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda yuqori samara beradi. CBI yondashuvi bilan integratsiyalashgan PBL modeli kursantlarning mustaqil tahlil qilish, vaziyatdan to‘g‘ri chiqish va kasbiy til vositalari orqali muloqot qilish salohiyatini kuchaytiradi. Bu metodda kursantlarga maxsus harbiy vaziyatlar taqdim etiladi, ular esa ingliz tilida muammoning yechimini topishi lozim bo‘ladi. Misol uchun, “dushman signali tutib olindi”, “bir guruh yo‘qoldi”, “aloqa uzildi” kabi holatlar asosida topshiriqlar ishlab chiqiladi [5, 207-bet] (4-jadval va 3-diagrammaga qarang).



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

4-jadval PBL asosidagi harbiy nutq ko‘nikmalarini shakllantiruvchi topshiriqlar

Muammoli vaziyat	Topshiriq mazmuni	Shakllanuvchi ko‘nikma
Aloqa uzilishi	Bo‘linmaga signal yetkazishning alternativ yo‘lini ingliz tilida taklif qilish	Innovatsion ifoda, tanqidiy fikrlash
Zarar ko‘rgan texnika haqida xabar	Brifingda nosozlik haqida axborot berish	Texnik tavsif, strukturaviy bayon
Yo‘qolgan guruh bilan aloqa o‘rnatish	Xarita asosida joylashuvni taxminiy tushuntirish	Vizual ifoda
Notanish buyruqni anglash	Buyruq mazmunini tahlil qilib, izoh berish	Kasbiy terminlar qo‘llash




Diagramma 3. PBL metodikasining nutqiy va funksional kompetensiyalarga ta’siri

Brifing va simulyatsiyalar harbiy xizmatdagi og‘zaki muloqot shakllarining eng yaqqol ifodasi bo‘lib, CBI yondashuvi doirasida kursantlarning kasbiy nutq kompetensiyasini shakllantirishda beqiyos vosita hisoblanadi. Ayniqsa, brifing topshiriqlari orqali kursantlar vazifani bayon qilish, xizmat buyruqlarini aniq tushuntirish, strategik axborotni tizimli tarzda yetkazish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Simulyatsiyalar esa real harbiy holatlarni sun’iy tarzda modellashtirish



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

orqali kursantlarni psixologik va lingvistik jihatdan tayyorlaydi [6, 307–328-bet] (5-jadval va 4-diagrammaga qarang).

5-jadval Brifing va simulyatsiyalar asosida shakllanuvchi nutq ko‘nikmalari

Faoliyat turi	Topshiriq mazmuni	Rivojlanadigan ko‘nikma
Brifing tuzish	Harbiy mashg‘ulot natijalari haqida ingliz tilida axborot berish	Strukturaviy og‘zaki bayon, izchil nutq
Radiomuloqot simulyatsiyasi	Signalni qabul qilish va buyruqni qayta yetkazish	Tezlikda tushunish, qisqa va aniq ifoda
Vaziyatga doir simulyatsiya	Ofitserlar yig‘ilishida tavsiya bildirish	Rasmiy va diplomatik uslubda fikr bildirish
Buyruqlar bilan ishslash	Topshiriqni o‘zlashtirish va qayta tushuntirish	Terminologik ifoda




Diagramma 4. Brifing va simulyatsiyalarning nutq ko‘nikmalariga ta’siri

Blokli-modul tizimi CBI yondashuvi asosida harbiy ta’limda til o‘rgatish jarayoniga bosqichma-bosqichlik va mantiqiy uzlusizlik kiritadi. Bu tizim har bir modul doirasida kursantlarning aniq kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishga



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

yo‘naltirilgan bo‘lib, modullar mavzu, vazifa va maqsadga qarab tashkil etiladi. Har bir modul yakunida kursant ingliz tilida ma’lum bir harbiy muloqot ko‘nikmasini egallaydi. Bunday yondashuv orqali o‘zlashtirish nazorat qilinadi, murakkablik darajasi esa asta-sekin oshirib boriladi [7, 28–30-bet] (6-jadval va 5-diagrammaga qarang).

6.-jadval Blokli-modul tizimi asosida shakllanadigan nutq ko‘nikmalar

Modul mavzusi	Topshiriq mazmuni	Nutqiylar kompetensiya
Buyruqlar va ko‘rsatmalar	Xizmat topshirig‘ini og‘zaki ifodalash	Buyruqni aniqlik bilan yetkazish
Texnika haqida axborot	Qurol-aslaha tavsifini yozma ravishda bayon qilish	Yozma rasmiy ifoda
Favqulodda holatlар	Qisqa va to‘g‘ri signal berish	Situatsion anglash va aloqa
Mashg‘ulotlar tahlili	Harbiy mashg‘ulotlar natijasini ingliz tilida tahlil qilish	Strukturaviy tahliliy nutq




Diagramma 5. Blokli-modul tizimi asosida shakllanadigan asosiy kompetensiyalar



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

Elektron baholash CBI yondashuvi doirasida kursantlarning harbiy nutq ko‘nikmalarini nazorat qilish va rivojlanish dinamikasini aniqlashda muhim metodik komponent hisoblanadi. Bu yondashuvda testlar, interaktiv savolnomalar, avtomatlashtirilgan monitoring platformalari yordamida kursantlar real harbiy kontekstda ingliz tilini qanday qo‘llay olishlarini amaliy jihatdan namoyon etadilar. Ayniqsa, topshiriqlarning turli formatlarda (audio, video, yozma, og‘zaki) taqdim etilishi baholash jarayonini yanada ob’ektiv va ko‘p tomonlama qiladi [8, 55–57-bet] (7-jadval va 6-diagrammaga qarang).

7-jadval Elektron baholash asosida shakllanadigan nutq ko‘nikmalari

Baholash vositasi	Topshiriq shakli	Shakllanuvchi ko‘nikma
Onlayn test platformasi	Buyruqni to‘g‘ri anglab, variant tanlash	Buyruqni anglash, tanlov asosida tahlil
Audio-topshiriq bahosi	Tinglab tushunib, matnni to‘ldirish	Tinglab anglash, mazmunni tushunish
Video vaziyat tahlili	Real holatni ko‘rib, bayon qilish	Situatsiyani anglashi, og‘zaki ifoda
Yozma fidbek [9, 34-bet] moduli	Mashg‘ulot haqida yozma fikr bildirish	Yozma rasmiy ifoda, strukturaviy tahlil




Diagramma 6. Elektron baholash orqali shakllanadigan asosiy nutqiy kompetensiyalar



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices

Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

Yuqoridagilardan shuni anglashimiz mumkinki, CBI asosida kombinatsiyalashgan metod eng optimal yondashuv sifatida kursantlarda harbiy sohaga oid nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Uning tarkibiy komponentlarini bir tizimda uyg‘unlashtirish, o‘quvchi ehtiyojlari va harbiy kasbiy talablar asosida qayta loyihalash orqali harbiy ta’limdagi ingliz tili mashg‘ulotlarini strategik darajaga olib chiqish mumkin. Bu model, ayniqsa, keljakda ingliz tilida professional muloqot yurita oladigan ofitserlarni tayyorlashda metodik va mazmuniy jihatdan asos bo‘lib xizmat qiladi.

Biroq tadqiqot davomida shu aniqlandiki, O‘zbekiston harbiy oliy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitishda CBI yondashuvi to‘liq shaklda joriy etilmagan. Bu yondashuvning asosiy tamoyillari, ya’ni kasbiy kontekstda til o‘rgatish, real vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar orqali til ko‘nikmalarini shakllantirish kabi elementlar ayrim muassasalarda qisman qo‘llanilmoqda. Biroq, bu yondashuvning to‘liq tizim sifatida integratsiyalashuvi hali amalga oshirilmagan. Tadqiqotda shu ko‘rinadiki, oliy harbiy ta’lim muassasalarida ingliz tilini o‘qitish bo‘yicha olib borilayotgan metodik yondashuvlar, xususan CBI (Content-Based Instruction) yondashuvi, ayrim institutlarda nazariy asos sifatida tan olingan bo‘lsada, uning amaliyotdagi qo‘llanilishi bir xil emas.

Chunki Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutda ingliz tilini o‘qitish jarayoni kasbiy vazifalarga yaqinlashtirilgan shaklda tashkil etilgan bo‘lib, darslarda brifing, signal almashinuvi, harbiy buyruqlarni tushunish va yozma hisobot tayyorlashga doir topshiriqlarga e’tibor qaratiladi. Kursantlar o‘z faoliyat yo‘nalishlariga mos kasbiy nutq elementlarini o‘zlashtirishga intilishadi. Biroq, CBI yondashuvi tamoyillari asosida tuziladigan topshiriqlar soni hali ham chegaralangan. Metodik jihatdan ko‘plab mashg‘ulotlar an’anaviy tarjima–grammatika yondashuviga asoslangan bo‘lib, real kontekstlar va zamonaviy multimodal vositalar kam qo‘llaniladi. Kasbiy vaziyatlar bilan bog‘liq topshiriqlar asosan tayyor matnlar asosida amalga oshiriladi, bu esa tilni erkin va ijodiy qo‘llash imkonini cheklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya institutida esa ingliz tilini o‘qitish dasturida parvoz xavfsizligi, uchish marshrutlari, signal turlari va havo harakatini boshqarishga oid materiallar mavjud. Kursantlar brifinglar tuzadi, radiomuloqot



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

orqali muloqot qiladi, havo harakatiga oid hisobotlarni yozadi. Bularning barchasi CBI yondashuvi uchun muhim elementlardir. Shunga qaramay, darslar ko‘plab hollarda an’anaviy strukturaviy yondashuvlar asosida tashkil etiladi. Materiallar ko‘pincha rus tilidan tarjima qilingan yoki sun’iy kontekstda tuzilgan bo‘lib, kursantlarning real xizmat muhitiga integratsiyasini sustlashtiradi. Interaktiv uslublar (simulyatsiya, vizual platformalar) kam qo‘llaniladi.

O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasida ingliz tilini o‘qitish huquqiy va xizmatga oid matnlar asosida olib boriladi. Ayrim huquqiy terminlar va vaziyatlar matnlarda uchrashi mumkin, biroq CBI yondashuvi asosiy yondashuv sifatida tanlanmagan. Darslarda kursantlar grammatik bilimlarni chuqurlashtirishga, til strukturasi va matn tahliliga yo‘naltirilgan mashqlarni bajaradilar. Kasbiy kontekstdagi muloqotlar kam hollarda va sun’iy tarzda qo‘llaniladi. Bu esa CBIning asosiy talabi — tilni kontent asosida, ya’ni kasbiy faoliyatga yo‘naltirilgan mazmunda o‘rgatishdan yiroqdir.

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetida esa aksincha, chet tilini o‘qitish umumiy til bilimlariga asoslangan. Dasturda umumkasbiy kontekstlar deyarli mavjud emas. Mashg‘ulotlar fonetika, morfologiya va klassik til ko‘nikmalariga qaratilgan. Darsliklar, audio va yozma materiallar ham kasbiy kontekstdan yiroq, bu esa CBI yondashuvi talablari bilan zid holatdir. Darsliklar va materiallar real xizmat vaziyatlariga moslashtirilmagan. Buning oqibatida kursantlar ingliz tilini faqat nazariy darajada o‘zlashtiradilar, real xizmatga tayyorgarlik holati yetarli emas.

Shu bois, quyida keltirilgan jadvalda har bir muassasa uchun mavjud metodik muammolar asosida CBI yondashuvini kombinatsiyalashgan metodlar bilan uyg‘unlashtirish va mavjud muammolarni yechish bo‘yicha quyidagi jadvalda amaliy tavsiyalar berishga harakat qildik (8-jadvalga qarang).



E CONF SERIES



International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy

Website: econfseries.com

27th July, 2025

8-jadval Harbiy oliv ta'lim muassasalarida CBI yondashuvining muammolari va ularni hal etish bo'yicha kombinatsiyalashgan metodlar asosidagi takliflar

OTM nomi	Aniqlangan muammolar metodik	CBI asosida kombinatsiyalashgan metodik takliflar
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti	CBI elementlari mavjud, biroq ular yetarlicha tizimlashtirilmagan, interaktiv metodlar va zamonaviy texnologiyalar kam qo'llaniladi.	Kasbiy topshiriqlarni real xizmat simulyatsiyasi asosida modellashtirish, multimodal vositalar orqali mashqlarni ko'paytirish.
O'zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya instituti	CBI maqsadli integratsiyalangan, biroq metodik chuqurlik va texnologik boyitish yetarli emas. Real xizmat muhitiga to'liq bog'lanmagan.	CBIni texnologik jihatdan boyitish, real xizmatdagi aloqa shakllariga asoslangan topshiriqlarni ko'paytirish, mashg'ulotlarni simulyatsiya qilish.
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi	CBI yondashuvi tan olingan, ammo metodik asos sifatida qo'llanilmaydi. Grammatikaga haddan tashqari urg'u berilgan.	Grammatik va fonetik o'rgatishni kasbiy kontekst bilan bog'lash, vazifabop topshiriqlar orqali muloqot kompetensiyasini rivojlantirish.
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti	Kasbiy kontekstlar mavjud emas, CBI yondashuvi umuman qo'llanilmagan. Umumiy til bilimlariga asoslangan ta'lim.	Kasbiy muloqot, hujjatlar bilan ishlash va xizmatga oid holatlarni integratsiyalashgan tarzda o'qitish orqali CBI modelini joriy etish.

Jadvalda ko'rsatilgan metodik muammolar va yechimlar CBI yondashuvining kombinatsiyalashgan model orqali to'liq tizimga aylanishini ta'minlaydi. Har bir OTM o'z ehtiyojlariga mos metodik komponentlardan foydalangan holda CBI modelini to'laqonli integratsiyalashi mumkin.



E CONF SERIES



**International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices
Hosted online from Rome, Italy**

Website: econfseries.com

27th July, 2025

Yuqorida tahlil qilingan ma'lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, CBI yondashuvi asosida shakllantirilgan kombinatsiyalashgan metod modeli kursantlarning harbiy sohaga oid ingliz tilidagi nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda metodik, mazmuniy va texnologik jihatdan samarali yechim sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, interaktiv texnologiyalar, situatsion mashg'ulotlar, PBL (muammo asosida o'qitish), brifing va simulyatsiyalar, blokli-modul tizimi va elektron baholash kabi komponentlar uyg'un holda qo'llanganda, kursantlarning kommunikativ, kasbiy va funksional kompetensiyalarida sezilarli ijobiy siljishlar kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Crandall, J., & Peyton, J. K. Content-based instruction in second and foreign language education. *TESOL Quarterly*, 1993. – Vol. 27, No. 2. – pp. 195–216.
2. Grabe, W., & Stoller, F. L. *Teaching and researching reading*. Routledge, 2011. – p. 338
3. Richards, J. C. *Curriculum Development in Language Teaching*. Cambridge University Press, 2001. – p. 285
4. Snow, M. A. Content-Based and Immersion Models for Second and Foreign Language Teaching. In: *Teaching English as a Second or Foreign Language*, 2001. – pp. 303–318.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press, 2001. – p. 270
6. Brown J. D. Task-Based Language Teaching in Military Contexts. // *Language Teaching Research*, 18(3). 2022. pp. 307-328.
7. Chapelle C. A. *Computer Applications in Second Language Acquisition: Foundations for Teaching, Testing, and Research*. // Cambridge University Press. 2016. pp. 28-30.
8. Ellis R. *Understanding Second Language Acquisition*. // Oxford University Press. 2015. p.p. 55-57.
9. Po'latova Z.A. Modulli tizimda yuridik yo'nalishli talabalarning yozuv malakasini baholash (B2 darajasi misolida):ped.fan.bo'y.fal.d-ri (PhD) diss.-Toshkent, 2022. 34-bet.